

MIGRATSIYA JARAYONLARI VA MIGRANTLAR HUQUQLARINING MILLIY HAMDA XALQARO HUQUQIY ASOSLARI

Qayumova Madina¹

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

KEYWORDS

Migratsiya, migrantlar huquqlari, xalqaro huquq, milliy qonunchilik, inson huquqlari, mehnat migratsiyasi, xalqaro tamoyillar.

ABSTRACT

Mazkur maqola migratsiya jarayonlari va ularning huquqiy asoslarini keng tahlil qilishga bag'ishlangan. Dastlab migratsiya tushunchasi va uning turlari haqida umumiy ma'lumotlar keltiriladi. So'ngra, O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi va xalqaro huquq asosida migrantlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, migratsiya bilan bog'liq asosiy muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar taqdim etiladi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.1519939](https://doi.org/10.5281/zenodo.1519939)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Migratsiya – bu insonlarning yashash joyini doimiy yoki vaqtinchalik o'zgartirish jarayoni bo'lib, u iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy yoki ekologik sabablar bilan bog'liq. Bu jarayon dunyo bo'ylab global ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismiga aylangan. Migratsiya ichki va tashqi shakllarda namoyon bo'ladi. Ichki migratsiya mamlakat ichidagi hududiy ko'chishni anglatadi, masalan, qishloqdan shaharga yoki aksincha. Ushbu jarayon O'zbekistonda asosan moliyaviy barqarorlikka intilish va ta'lim olish maqsadida amalga oshiriladi. Tashqi migratsiya esa mamlakatlararo ko'chishdir. Tashqi migratsiya ixtiyoriy va majburiy shakllarga bo'linadi. Ixtiyoriy migratsiya odatda ta'lim olish, ish topish yoki oilaviy sabablarga ko'ra amalga oshirilsa, majburiy migratsiya urush, ekologik falokatlar yoki siyosiy mojarolar tufayli yuzaga keladi. Migratsyaning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati ulkan bo'lib, u global mehnat bozorini shakllantiradi, yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadi va madaniy xilmashlikka hissa qo'shadi. Biroq, bu jarayon bir qator muammolarni ham keltirib chiqaradi, masalan, diskriminatsiya, ekspluatatsiya va huquqiy himoyaning yetishmasligi. Shu sababli, migratsiya jarayonlarini samarali boshqarish va migrantlarning huquqlarini himoya qilish uchun milliy va xalqaro darajadagi huquqiy mexanizmlar yaratilgan.

O'zbekistonda migratsiya jarayonlarini tartibga solish uchun keng qamrovli qonunchilik bazasi yaratilgan. Bu jarayonning huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi

¹ Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining Xalqaro huquq fakulteti 1-bosqich talabasi

Konstitutsiyasi hisoblanadi. Amaldagi Konstitutsiyaning

23-moddasida “O’zbekiston Respublikasi o’z hududida ham, uning tashqarisida ham o’z fuqarolarini himoya qilish va ularga homiylik ko’rsatishni kafolatlaydi. O’zbekiston Respublikasi fuqarosi O’zbekistondan tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emas. Davlat xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish hamda rivojlantirish to’g’risida xalqaro huquq normalariga muvofiq g’amxo’rlik qiladi.” **32- moddasida** esa “...Har kim O’zbekistondan tashqariga erkin chiqish huquqiga ega, bundan qonunda belgilangan cheklolalar mustasno. O’zbekiston Respublikasi fuqarosi O’zbekistonga to’sqiniksiz qaytish huquqiga ega.” deb belgilab qo’yilganligi hukumatimizning migrantlar huqulariga befarq emasligini bildiradi.

Mehnat kodeksi esa migrantlarning mehnat huquqlarini himoya qilish uchun asos bo’lib xizmat qiladi. Mehnat kodeksida migrantlar uchun teng imkoniyatlar yaratish, mehnatga teng haq to’lash va xavfsiz mehnat sharoitlarini ta’minalash bo’yicha qoidalar belgilangan. O’zbekiston hukumati migrantlarga ko’maklashish uchun “Vatandoshlar” jamoat fondi tashkil qildi. Ushbu jamg’arma migrantlarga quyidagilarni ta’minalaydi: huquqiy maslahatlar, moliyaviy yordam, ijtimoiy himoya xizmatlari. Shuningdek, Migratsiya agentligining rasmiy sahifasida chet elga ishga ketish maqsadidagi fuqarolarimiz uchun xorijda ishslash uchun qonuniy bo’sh ish o’rinlari joylab boriladi va online ro’yxatdan o’tgan shaxslar xavsiz hamda qonuniy ish bilan ta’milanadi. Bu esa hukumat tomonidan mehnat migrantlari uchun ko’rsatilayotgan amaliy yordamning yorqin misolidir. Bunday dasturlar va jamg’armalarni tashkil etish orqali biz mehnat migratsiyasi jarayonidagi bir qancha noxushliklarni, shu jumladan, davlatlar chegarasidan noqonuniy o’tish va fribgar kimsalarga aldanish kabi jinoyatlarni oldini olgan bo’lamiz.

Xalqaro huquq migratsiya jarayonlarini tartibga solishda va migrantlarning huquqlarini himoya qilishda muhim o’rin tutadi. Xalqaro darajada qabul qilingan bir qator hujjatlar bu borada yetakchi rol o’ynaydi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil) xalqaro huquqning asosiy hujjatlaridan biridir. Deklaratsiyaning 13-moddasi har bir insonning mamlakatni tark etish va qaytib kelish huquqini kafolatlaydi. 23-moddasi esa har bir insonningadolatli mehnat sharoitlari va teng haq olish huquqlarini belgilaydi. 1990-yilda qabul qilingan “Migrant ishchilar va ularning oila a’zolari huquqlari to’g’risida”gi xalqaro konvensiya migrantlarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Ushbu konvensiya migrantlarga yashash va ishslash sharoitlarini yaxshilash, ularga teng imkoniyatlar yaratish va ekspluatatsiyadan himoya qilishni nazarda tutadi.

Migratsiya bilan bog’liq muammolar va ularning yechimlari

Migratsiya jarayonlarida yuzaga keladigan muammolar ko’p qirrali va murakkabdir. Ular orasida diskriminatsiya, ekspluatatsiya va huquqiy savodxonlikning pastligi kabi muammolar mavjud.

Diskriminatsiya va ekspluatatsiya – Migrantlar ko’pincha nohaq mehnat sharoitlariga duch keladi. ularning huquqlarini talab qilish uchun yetarli imkoniyatlari yo’q bo’lib, ular o’z huquqlarini bilmasliklari natijasida ekspluatatsiyaga uchraydi.

Huquqiy savodxonlikning pastligi – Migrantlar ko’pincha o’z huquqlarini bilmasliklari sababli

turli muammolar bilan yuzlashadilar.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun quyidagi choralar taklif etiladi:

1. Migrantlar uchun bepul huquqiy maslahat xizmatlarini kengaytirish va huquqiy savodxonlikni oshirish. Shu bilan birgalikda chet elga chiqib ketayotgan mehnat migrantlarini har qanday holatda, nohaqliklarga duch kelganida konsullikkarga murojaat qilib, huquqiy yordam so'rashlari mumkinligi uqtirilishi zarur .
2. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, mintaqaviy integratsiyani rivojlantirish va davlat tomonidan tashkil qilinayotgan qonuniy ishga yuborish dasturlarini yanada takomillashtirish .
- 3.Chet elga chiqib ketgan migrantlarga ko'proq bo'sh ish o'rirlari yaratish orqali ularni mahalliy ishlarga jalg qilish. Bu bilan pul topish maqsadida chet ellarga chiqib ketgan yurtdoshlarimizni oilalariga , farzandlari bag'riga qaytarib barkamol va mehrga to'la yoshlar ulg'ayishiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz

Xulosa qilib aytganda, migratsiya global rivojlanishning muhim omili sifatida milliy va xalqaro huquqiy asoslarda tartibga solinadi. O'zbekiston qonunchiligi migrantlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan bo'lib, xalqaro huquq bilan uyg'unlashgan holda ularning mehnat va ijtimoiy huquqlarini himoya qiladi. Maqolada migratsiya muammolari – masalan, adolatsiz munosabat va huquqiy bilimlarning yetishmasligi muhokama qilinib, ularga yechim sifatida amaliy harakatlar va global sheriklikni rivojlantirish yo'llari taklif etildi. Ushbu choratadbirlar migrantlarning huquqlarini samarali himoya qilishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (30.04.2023) : <https://lex.uz/docs/-6445145?otherlang=1>
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (30.04.2023) : <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi(1948): <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>
4. International Convention on the Protection of the Rights of All Migrant Workers and Members of Their Families(18.12.1990) : <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-convention-protection-rights-all-migrant-workers>